

AZIZ NESIN HIKOYALARIDA KINOYA

Gulnoza Jumayeva. O‘zbekiston, Toshkent.

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi II kurs magistranti.*

Annotatsiya. Ironiya yolg‘on emas, chunki u qabul qiluvchini aldash uchun mo‘jallanmagan. Bunda muallifning umuman ironistning maqsadi ikki xil bo‘lishi mumkin. Ijodkorning maqsadi bayon etilayotgan ijod namunasida kinoya orqali o‘zining g‘oya va qarashlarini barcha o‘quvchilarga emas, bir turk maqolida aytilgani kabi “Orif bo‘lgan tushunadi” qabilida o‘quvchi kitobxonini saralash orqali yetkazib berish bo‘lsa, ironistning boshqa bir maqsadi bu yumshoq tuyuladigan qattiq haqorat bo‘lishi mumkin. Kinoyadan foydalanilganda u aniq niyat bilan ta’kidlagan narsaning tarzini bildiradi. Yolg‘on bilan kinoyani farqlash uchun yuqoridagi ba’zi elementlarga e’tibor berish, ifoda etilayotgan vaziyat, ochib berilmoqchi bo‘lgan voqeylikka e’tibor berish kerak. Kinoyadan foydalanilganda u aniq niyat bilan ta’kidlagan narsaning tarzini bildiradi. Yolg‘on bilan kinoyani farqlash uchun yuqoridagi ba’zi elementlarga e’tibor berish kerak.

Kalit so‘zlar: Aziz Nesin, kinoya, sarkazm, ironiya, qahramon, yumor, demokratika, reallikni baholash.

Kinoyaviy asar yaratishda muallif voqelik va qahramon haqida fikr bildirar ekan masalaga boshqa tomondan yondashadi. Sitseronning fikriga ko‘ra, kinoya ustasi bilvosita va’z qilishni biladigan notiq bo‘lishi kerak. Kinoyani qo‘llovchi, ta’sir qilishning noodatiy tarafidan hammaga ma’lum usulda foydala olishi orqali ta’sirni orttira oladi. Kinoyada faqatgina satira va yumordagi singari reallikni baholab qolmasdan istalgan ijtimoiy-ma’naviy yoki estetik holatga o‘zining hissiy-g‘oyaviy qarashini obyekt sifatida tanlab oladi. Asar davomida ijodkor qahramon yoki umuman voqelikdan chetda, uzilgan tarzda ularga baho beradi, qahramonning holati, chorasizligi, u tushgan vaziyatning mantiqsiz va mavhum ekanligiga hissiz, befarq qaraydi. Kinoyaviy asar yaratishda muallif voqeylik va qahramon haqida fikr bildirar ekan masalaga boshqa tomondan yondashadi. Sitseron¹ning fikriga ko‘ra, kinoya ustasi bilvosita va’z qilishni biladigan notiq bo‘lishi kerak. Kinoyani qo‘llovchi, ta’sir qilishning noodatiy tarafidan hammaga ma’lum usulda foydala olishi orqali ta’sirni

¹ Sitseron Mark Tulliy (Marcus Tullius Cicero) – Rim siyosiy arbobi, notiq va yozuvchi. Rim fuqarolari orasida birinchi bo‘lib “ Yurt otasi” unvoniga sazovor bo‘ladi. Sitseron butun dunyoga notiq sifatida mashhur bo‘lgan. Uning bizgacha 58 ta nutqi, 19 ta asari va 800 dan ortiq maktublari yetib kelgan. Rimda mumtoz nasr va rim adabiy tiliga tamal toshini qo‘ygan. Sitseronning “ Verresga qarshi nutqlar”, “ Katilinaga qarshi nutqlar”, “ Orator haqida” traktatlari Oybek tomonida o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

orttira oladi. Kinoyada faqatgina satira va yumordagi singari reallikni baholab qolmasdan istalgan ijtimoiy-ma'naviy yoki estetik holatga o'zining hissiy-g'oyaviy qarashini obyekt sifatida tanlab oladi. Asar davomida ijodkor qahramon yoki umuman voqelikdan chetda, uzilgan tarzda ularga baho beradi, qahramonning holati, chorasizligi, u tushgan vaziyatning mantiqsiz va mavhum ekanligiga hissiz, befarq qaraydi. Voqelikni badiiy tasvirlar ekan muallif ham, o'quvchi kitobxon ham bu vaziyatga tushib qolishi mumkin ekanligini anglab, his qilib turamiz (Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar", "Ot kishnagan oqshom" asarlarini eslang). Shu sabab, kinoyaviy nuqtai-nazar sohibi obyektidagina emas, o'z-o'zidan ham chetlashgan bo'ladi. Kinoya orqali tanlagan ob'yekt maqtov va ma'qullash niqobi ostida masxaralash yoki so'roq qilish, shu bilan fosh qilish va unga nisbatan raddiya bildirish mumkin. Shu qatorda aytib o'tishimiz mumkinki, ironiya faqat subyektning ob'yektga munosabati orqaligina ochiqlanmaydi. Ba'zida o'z-o'ziga kinoya qilish ya'ni subyektning o'zi o'zini obyektga aylantirgan holda istehzoni ifodalashi ham mumkin. Aziz Nesin ijodida ayni o'z-o'ziga kinoya qilish, o'z tilidan o'zini haqoratlash kabi talay misollar topishimiz mumkin:

- Faylasuflar odam bolasiga turlicha ta'riflar berishgan. Lekin mening o'ylashimcha, *odam – bu o'zini inson deb yurgan eshakning o'zi*. Nega desangiz, o'shanda men ham odamligimga bordim. Do'stimning shirin gaplariga uchib, qalamimga yana zo'r berdim. ("Nozik barometr" hikoyasidan)
- Endi bundoq o'ylab qaragam, men uchun quyoshgacha piyoda yurib borish, boyagi joyni sotib olishdan oson tushar ekan. ("Pulimga yarasha yer bering" hikoyasidan)
- Muxbirlik kasbimga *xiyonat* qilganim uchun qamoqqa tushgan bo'lsam ham, demokratiya shunqori degan nom oldim. Aslida o'zi muxbir bo'lib shundan qisilib yurgan edim, mana endi bunisiga ham erishdim. Hozir qamoq muddatini tugatay deb qoldim.²

Aziz Nesin qahramonlarini ayaydi, muallif ijodida optimistik ruh bor. Ya'ni Aziz Nesin har qanday fojeaviy qiyin vaziyat yoki asabiy holatni ham yengil, aslida shunday bo'lishi kerak tarzida o'quvchisiga taqdim etadi. Aslida bu yengil ruh ortida isyon, norozigarchilik, asosan millatni uyg'otishga uringanlik ishtiyoqi sezilib turadi. Yuqoridagi misollarning birinchisida faqat ishi tushgandagina uni yo'qleydigan, boshiga ish tushganda esa tanishidan ham tonadigan, ob-havoga qarab o'zgaradigan do'stiga "nozik barometr" deb nom bergan ijodkor, bu nomni unga shunchalik oddiy va samimiy tarzda beradiki, asli oddiy muxbir bo'lib ishlaydigan roviy tilidan hikoya qilingan voqeada siz muallifning "xotirjam" kayfiyatidan hayron qolasiz. Gazetadagi bir maqolasi sabab yuqoridan "dakki" eshtib, endi siyosat va

² Aziz Nesin. Kaltaksiz turolmayman." O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent. : 2023

kamchiliklardan butunlay uzoq yurib, tinchgina yashashga qaror qilgan muxbir yigitga “do‘st”i maqolaning o‘ta ma‘nodor ekanligi, xalq dardi aks ettirilgani, ko‘proq shu kabi maqolalar yozishi kerak ekanligi-yu butun millatning umidi ayni shu muxbir yigitda ekanligini aytib motivatsiya beradi. Kimdir uning fikrlari rost ekanligi tushunganidan ruhlangan yigit yana shu mazmundagi maqola yozadi va endi shunchaki dakki bilan emas, prokraturadagi tergov bilan ogohlantiriladi. Tergovdan qaytayoyganda yana o‘sha “do‘st”iga ro‘baro‘ keladi va undan “Vatanimizni sizlar qutqarib qolasiz” kabi maqtovlarni eshtgach vatan taqdiri o‘zining fleytonlariga bog‘liq ekanligini o‘ylab, o‘z tili bilan aytganda “bopla yozib tashlaydi”. Keyingi safar unga bunday davom etsa, tergov tugul dorga tutilishi mumkin ekanligini yaxshilab tushuntirib qo‘yishgach, bila turib yana shunday qilganini, yana maqtovdan ruhlanib, pand yegan ishini qayta qilganini keltirilgan misoldagi “odam – bu o‘zini inson deb yurgan eshshakning o‘zi” va “odamligimga bordim” kabi jumlar bilan ifodalaydi. Hikoya so‘ngiga qadar qahramon “do‘st”ining sharofati bilan ishdan ketadi, qamalib chiqadi. Bu orada “millat bunday nonko‘r”lardan uyalishni ayta-ayta lavozimi yuqorilab qolgan “do‘st”i ishsiz qolgan qahramonni tanishidan tonib, uzoqroq yurishi-yu, yaxshi-yomonning gapi bor ekanligini aytadi. Amallab mayda ishdan kun ko‘ra boshlagan qahramonning oldiga bir kuni qarz so‘rab kelganida esa, so‘ngi tiniga qadar shilib olgan kamdek, boshqadan qarz olib berishga majbur qiladi ham. Hikoya hajviya ostiga olinib, faqatgina “do‘st”i haqida emas, balki siyosiy vaziyat va “so‘z erkinligi” haqida yengil qochiriqlarga to‘lib-toshgan bo‘lsada, kitobxon o‘quvch uchun o‘qilishi og‘ir hikoya sanaladi. Hikoyada deyarli ijodkorning “tishli” gaplari uchramasa ham, bir insonning bu qadar yolg‘onchi, ig‘vogar va yetmaganiga yuzsiz ekanligi, bosh qahramon ham shunchalik ochiq haqiqatlarga qaramasdan yana uni yaqin olib, yordam qilayotgani va bu holatga umuman yomon munosabat bildirmayotganligi kitobxonni ta‘sirlantirmay qolmaydi. Muallifning voqeaga o‘ta xotirjam yondashuvi esa hikoya davomida o‘quvchini asabiylashtiradi. Asli muallifning hikoyadan maqsadi ham ayni shu bo‘lgan menimcha. Kinoya turlari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak hikoyada dramatik va og‘zaki kinoya qo‘llanilgan. O‘quvchi hammasini anglab turishi lekin, qahramonning bunga befarq yondashishi sababli hikoyada muallif o‘z o‘quvchisiga berishni istagan kayfiyatni bera olgan. Ikkinchi misoldagi hikoya mavzusiga ko‘ra tirikchilik uchun kuniga 16-20 soat ishlab, 500 lira³ oylik oladigan ishchining gazetada imoratsiz ququr yer to‘rt million liraga sotilgani haqidagi xabarni o‘qigach, buncha pulni qanday topish mumkinligi haqida uxlamay hisob-kitob chiqishlari haqida. 300 lira ijara haqqi to‘lab, yana yirikkina oila boquvchisi bo‘lgan qahraman gazatadagi xabardan keyin to‘rt million lira topishga qancha vaqti ketishi haqida o‘ylashni boshlaydi. Dastavval, o‘z oyligidan yeb-ichishni siqishtirib, 100 liradan har oy to‘play boshlasa va ming yil umr ko‘rsa-yu,

³ Lira – Turkiya pul birligi

doim “ tishning kirini so‘rib” yursa ham bor- yog‘i bir million ikki yuz lira yig‘ilishini hisoblaydi. Keyinchalik oladigan butun maoshini ijara va oziq-ovqatga ham bermay to‘play boshlaganda ham 666 yil yashab, tinimsiz ishlashi kerakligi haqida o‘ylay boshlaydi. Shu o‘ylov tinchlik bermayotgan qahramon endi kuniga 20 soat o‘rniga 24 soat ishlab, oyligini ming liraga yetkazib, oylasi o‘z kunini o‘zi ko‘rib, ming irani bir tiniga ham tegmay yig‘ganida ham yana 33 yil ishlashi kerakligini hisoblab chiqadi. Hisobni juda sevuvchi, litsey payti Quyoshgacha yurib borish uchun unga qacha vaqt kerak ekanligini hisoblab chiqqan qahramon xulosasicha Quyoshgacha yurib borish, o‘sha quruq yerni sotib olishdan ko‘ra ancha oson ish bo‘lib chiqadi. O‘zi surunkali ishlab yana kechasi bilan shu “qayoqdagi gazetada o‘qib qolgan xabar”ining kasriga uxlolmay chiqayotgan qahramon: “ To‘xta, to‘xta, - dilimda o‘ylayman o‘zimcha - axir shu joyni sotib olgan ham senga o‘xshagan odam-ku. Muncha pulni u qayoqdan oldiykin?” –degan fikrda keyinchalik buncha pul topish uchun nima qilish mumkinligi haqida o‘ylay boshlaydi. Quruq yer uchun to‘rt millionni beli og‘rimay sanab berishi mumkin bo‘lgan odamning oldida yana kamida shuncha pul bo‘lishi mumkinligini taxmin qilib, eng katta davlat amaldori ham eng ko‘pi bilan 1500 lira haq olishini o‘ylab, boshi qotgan qahramonning bu pulni topish uchun haloldan haromgacha bo‘lgan hamma ishlarni taxmin qilib hisoblab chiqishlari ham samarasiz ketadi. Bemordan pul oladigan doktor, savdogar, “jononlar pul topib beradigan” islovatxona egasi, yashirincha chetdan mol olib kelib sotadigan firibgar kabi qaysi ish boshini tutmasin pulni yig‘ib bo‘lmaydi. Undan so‘ng “ butun oila ishlasachi” degan fikrni mulohaza qila boshlaydi. Bu fikr ham o‘zini oqlamagach butun oila a‘zolaridan pul yig‘yib chiqadi umumiy 19 lira bo‘ladi. Demak yerning hammasini sotib olish shart emas, pulimizga yarashasini sotib olsak, kifoya degan qarorga kelib puliga 74 kvadrat santimetr yer olishni rejalashtiradi. Dramatik kinoyadan koydalangan muallif hikoyani o‘quvchi taxmin qilmagan usulda yakunlaydi. To‘rt million lira ishlab topish uchun shuncha urinishga qaramay chora topimaydi va “ko‘rpasiga qarab oyoq uzatish” ga qaror qilinadi. Hikoya mazmuni faqatgina yer narxining aholi daromadidan ancha qimmat ekanligiga qaratilmaydi. Qahramon litsey paytida o‘qiganini eslab o‘tib-ketishi orqali mamlakatdagi ziyoli qatlamning ham ishsiz yoki oila tirikchiligiga yetmaydigan maoshga ishlayotganligi, bundan tashqari eng katta amaldor ham ko‘pi bilan 1500 lira olishini qistirib o‘tish orqali poraxo‘rlik, davlat mulkidan undirish masalalariga ham ishora qilinadi. Bularning barchasi hech qanday isyonkor yoki norozi ohangda emas, ko‘nikilgan va odatiy tarzda ifoda etiladiki, Aziz Nesin o‘z kitobxonini go‘yoki, o‘zi aralashmagan holatda o‘ylantirib qo‘yadi.

Ironiya yolg‘on emas, chunki u qabul qiluvchini aldash uchun mo‘jallanmagan. Bunda muallifning umuman ironistning maqsadi ikki xil bo‘lishi mumkin. Ijodkorning maqsadi bayon etilayotgan ijod namunasida kinoya orqali o‘zining g‘oya va qarashlarini barcha o‘quvchilarga emas, bir turk maqolida aytilgani kabi “Orif bo‘lgan

tushunadi” qabilida o‘quvchi kitobxonini saralash orqali yetkazib berish bo‘lsa, ironistning boshqa bir maqsadi bu yumshoq tuyuladigan qattiq haqorat bo‘lishi mumkin. Kinoyadan foydalanilganda u aniq niyat bilan ta’kidlagan narsaning tarzini bildiradi. Yolg‘on bilan kinoyani farqlash uchun yuqoridagi ba’zi elementlarga e’tibor berish, ifoda etilayotgan vaziyat, ochib berilmoqchi bo‘lgan voqeylikka e’tibor berish kerak.

Kinoyadan foydalanilganda u aniq niyat bilan ta’kidlagan narsaning tarzini bildiradi. Yolg‘on bilan kinoyani farqlash uchun yuqoridagi ba’zi elementlarga e’tibor berish kerak.

